

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024



No 8

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 296 sahifa.
E'lon qilishga 2024-yil 7-avgustda ruxsat etildi.*

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Musayeva Shoirazimovna, SamDu IS instituti professori
Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi
Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Ali Konak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya
Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyea Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Benchmarking asosida oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshlik xususiyatini oshirish.....	16
Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Zaynutdinova Umida Djalolovna	
Mehnat resurslarini samarali boshqarish orqali ish bilan bandlikni ta'minlash	20
Shakarov Zafar Gafforovich	
Трансформация человеческого капитала в условиях цифровизации и внедрения искусственного интеллекта в банковскую экосистему	24
С.С. Исмаилов	
“Kreativ iqtisodiyot” va “kreativ industriya”: mohiyati, nazariy jihatlarining tahlili	32
Dusmuxamedov Oybek Suratbekovich	
Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	37
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
Don mahsulotlari tarmog'ida mavjud kamchiliklar va ularning yechimlari	41
Sh.B. Donayev	
Eksportni rivojlantirish iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biridir	45
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha soliq ma'muriyatchiligini tashkil etish.....	49
Idirisov Alisher Otajonovich	
Institutsional investorlar faoliyatini tashkil etishning konseptual jihatlarini.....	53
Sultanov Maxmud Axmedovich	
Poverty in developing countries: new problems and solutions.....	57
Amirdjanova Sitara Sunnat kizi	
Факторы, влияющие на успешное функционирование скандинавской модели развития экономики	61
Вохидова Мехри Хасановна	
Анализ зарубежного опыта методологии оценки финансового потенциала развитых стран.....	69
Буранова Лола Вахобовна	
Мамлакатimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etishning zarurligi.....	78
Babamatov Tolib Hakimovich	
Davlat-xususiy sheriklik loyihalarining tashkiliy-huquqiy mexanizmlari	83
S.A.Karabayev	
O'zbekiston tijorat banklarida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish yo'llari	90
Yusupov Aziz Shuxratovich	
Sanoatda raqamli transformatsiyaning shakllanishi va rivojlanishi	95
Gulbayeva Feruza Islamovna	
Oliy ta'lim muassasalarining mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri.....	102
Sherov Alisher Bakberganovich	
Maxsus kiyimlar tikishda foydalaniladigan gazlamalar tahlili	107
Sayidova Maftuna Hamroqul qizi	
O'zbekistonda elektron bank xizmatlarini o'zgartirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish	111
Umarova Malika Baxtiyarovna	
Оценка влияния налоговой системы на финансовое состояние организаций.....	116
Умида Юлдашева	
Теоретическое обоснование интернет-маркетинга в социальных сетях.....	120
Арипходжаев Саидамир Фузулиддинович	



Sport tashkilotining marketing strategiyasini ishlab chiqish.....	127
Ismoilov Sherzod Dilshodovich	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda klaster tizimini joriy qilish jarayonlari.....	132
Ziyadullayev G'ayrat Umidulla o'g'li	
Hududlar soliq salohiyatini oshirishda soliq risklarini boshqarishning zamonaviy tendensiyalari	138
Sharipov Narzullo G'ulomovich	
O'zbekistonning xalqaro bozordagi faoliyatini kengaytirishda marketing strategiyalaridan foydalanish samaradorligi.....	144
Shadieva Madina Djaloliddin qizi	
Xususiy tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining rivojlanish tendensiyalari.....	148
Jumanazarova Z.K.	
Xalqaro savdning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri	154
Rashidov Bekzod Ulug'bek o'g'li, Isayev Laziz Baxtiyorovich	
Oliygochlarni optimallashtirishda sinergiya samarasiga erishish yo'llari	158
Adizov Sanjar Rashidovich	
Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida bank tizimining barqarorligini ta'minlash asosida aholi kambag'allik darajasini qisqartirish	165
Xoliyrov Murod Qahramon o'g'li, Xoliyrova Shoxista Qahramon qizi	
Концептуальная основа маркетинга в социальных сетях в туризме.....	174
Касимова Зилюла Гуламиддиновна	
O'zbekistonda don mahsulotlari klasterlarida ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatini rivojlantirish	182
Alimov G'ayratjon Abduraxmon o'g'li	
Актуальные проблемы и пути решения приватизации государственного имущества в узбекистане	186
Шахзод Сайдуллаев	
Ttijorat bank daromadlaridagi risklarni baholash va boshqarishni takomillashtirish	192
Ahmedov Komron Muhammadaliyevich	
Sanoat korxonalarini iqtisodiy salohiyatini oshirishga ta'sir etuvchi omillar tahlili.....	196
Quyjanov Xurshid Abdullayevich	
Tashkilotning moliyaviy natijalarini hisobga olishda auditni takomillashtirish masalalari	200
Bakayev Xurshid Maxmudovich	
Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi o'rni va ahamiyati	206
Normurzaev Umid Xolmurzaevich	
Анализ международного опыта в сфере тепличного овощеводства	214
Нурутдинова Зухра Алишеровна	
Hududda turizm xizmatlarini rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribalarining mohiyati	220
Madaminova Sanobar Askarovna	
Hududning iqtisodiy o'sishini "yashil" iqtisodiyot asosida shakllantirishning nazariy asoslari	226
Shomirzayev Abdug'affor Abdujabbor o'g'li	
Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasi faoliyati tahlili.....	230
Umurzakova Mo'tabarxon Nodir qizi	
Qurilish materiallarini ishlab chiqarish korxonalarining boshqarish tizimini takomillashtirish.....	234
Uzakova Umida Ruziyevna	
O'zbekistonda turistik majmualarni boshqarishning zamonaviy konsepsiyalari va yondashuvlarining metodologik jihatlarini.....	241
Xomidov Qaxxorali Qurbonali o'g'li	
Aktiv va reaktiv quvvatlari tushunchasi va ularni soliqqa tortishdagi mavjud muammolar	247
Boykabilov Bahodir Mustafayevich	



Kichik sanoat zonalari korxona va mahsulotlar raqobatbardoshligini baholashga uslubiy yondashuv	251
Ozoda Batirovna Sakiyeva	
Investitsion jozibadorlikni baholashning uslubiy jihatlari	255
N.N.Zikrillayev	
Hududlarda turizm tarmoqlari infratuzilmasi va uni rivojlantirishni boshqarishning metodologik jihatlari	263
Saidova Dilfuza Abdufattohovna	
The connection of legal protection of geographical indications and state's economic growth	268
Almosova Shahnoza Sobirovna	
Kichik biznesning integratsiyalashuv mexanizmlarini shakllantirish	273
Israilov Rustam Ibragimovich	
Aksiyadorlik jamiyatlarida biznes jarayonlarni samarali boshqarishning nazariy asoslari va o'ziga xos xususiyatlari	277
D.D. Suvanova	
Оптимизация маркетинговой деятельности вузов узбекистана для привлечения абитуриентов	283
Шамшиева Наргизахон Носирхужа кизи	
Davlat budjetidan aholini uy-joy bilan ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari	290
Xannarov Komiljon Karimovich	



DAVLAT BUDJETIDAN AHOLINI UY-JOY BILAN TA'MINLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Xannarov Komiljon Karimovich

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi xodimi

Annotatsiya: maqolada davlat budjetidan aholini uy-joy bilan ta'minlash xarajatlarini moliyalashtirishning nazariy jihat-lari tadqiq etilgan. Unda mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqotlari bo'yicha mustaqil mualliflik yondashuvlari ishab chiqilgan. Tadqiqotlar asosida mamlakatimizda aholini uy-joy bilan ta'minlashning nazariy jihatlarini yuzasidan ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: davlat budjeti, uy-joy, ipoteka kredit, ijtimoiy himoya, ijtimoiy siyosat, kambag'allik.

Abstract: the article examines the theoretical aspects of financing the costs of providing housing to the population from the state budget. Independent authorship approaches to scientific research of local and foreign scientists are developed in it. On the basis of research, scientific suggestions and recommendations have been developed regarding the theoretical aspects of providing housing to the population in our country.

Key words: state budget, housing, mortgage credit, social protection, social policy, poverty.

Аннотация: в статье рассматриваются теоретические аспекты финансирования расходов на обеспечение насе-ления жильем из государственного бюджета. В нем развиты независимые авторские подходы к научным иссле-дованиям отечественных и зарубежных ученых. На основе исследований разработаны научные предложения и рекомендации по теоретическим аспектам обеспечения населения жильем в нашей стране.

Ключевые слова: государственный бюджет, жилье, ипотечный кредит, социальная защита, социальная политика, бедность.

KIRISH

Davlat o'zining ijtimoiy funksiyalarini bajarishda doimiy ravishda davlat budjeti mablag'laridan faol foyda-lanadi. Bu esa, davlat budjetiga bo'lgan zaruratni saqlanib qolishiga xizmat qiladi. Davlat o'zining ijtimoiy siyo-satini amlaga oshirishda aholining kam daromadli qatlamini moliyaviy jihatdan himoya qilishga e'tibor qaratadi. Natijada, aholining kam daromadli qatlamida mavjud bo'lgan turli ehtiyojlarni ta'minlashda ijtimoiy siyosatning elementlari vujudga kela boshlaydi.

Davlat budjetidan ijtimoiy siyosatni moliyalashtirish yo'nalishlari haqida fikr yuritilganda quyidagi jihatlar-ga e'tibor berilishi ko'plab adabiyotlardan ma'lum hisoblanadi:

Birinchidan, aholining ishsiz qatlamini vaqtinchalik moliyaviy qo'llab-quvvatlash;

Ikkinchidan, aholining tibbiy xizmatlarga bo'lgan qatlamini tibbiy sug'urta bilan ta'minlash va uni moli-yalashtirish;

Uchinchidan, boquvchisini yo'qotgan oilalar uchun ijtimoiy nafaqalar tayinlash va uni moliyalashtirish yo'nalishlari;

To'rtinchidan, onalik va bolalikni himoyalashga qaratilgan tadbirlarni moliyalashtirishni nazarda tutish;

Beshinchidan, aholining kam ta'minlangan qatlamini kambag'allikdan himoya qilish va ularni uy-joy bilan ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni budjetdan moliyalashtirishni ko'zda tutish.

Fikrimizcha, davlat budjetidan ijtimoiy siyosatni moliyalashtirishda aholini uy-joy bilan ta'minlash masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa, aholining turli ijtimoiy-iqtisodiy risklardan himoyalashga nisbatan himoya yostiqchalari shakllanishiga imkoniyat tug'iladi, deb o'ylaymiz. Shu boisdan, aholini uy-joy bilan ta'minlashda davlat moliyaviy siyosatning turli elementlaridan foydalangan holda ijtimoiy siyosatni qo'llab-quvvatlash yo'na-lishlarini amalga oshiradi.

O'zbekistonda aholini uy-joy bilan ta'minlash masalasi uzoq yillar davomida kam e'tibor berilgan sohalardan biri bo'lib keldi. Natijada, mustaqillikning dastlabki, 25 yilida uy-joy bilan bog'liq ustuvor masalalar davlatning infratuzilmaviy siyosatida o'z aksini topmadi. 2017-yilga kelib esa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risi-da"gi PF-4947-sonli Farmonining qabul qilinishi bilan mazkur masala davlatning ijtimoiy siyosatida ustuvor vazifalardan biriga aylandi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

1 <https://lex.uz/docs/-3107036>



Mazkur hujjatning qabul qilinishi bilan mamlakatni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi. Jumladan, 4-ustuvor yo'nalish sifatida "ijtimoiy sohani rivojlantirish" masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Ushbu ustuvorlik doirasida arzon uy-joylar barpo etish ijtimoiy siyosatning asosiy elementlaridan biriga aylandi, desak to'g'ri bo'ladi.

Mazkur hujjatning qabul qilinishi bilan "aholi, eng avvalo, yosh oilalar, eskirgan uylarda yashab kelayotgan fuqarolar va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj boshqa fuqarolarning yashash sharoitini imtiyozli shartlarda ipoteka kreditlari ajratish hamda shahar va qishloq joylarda arzon uylar qurish orqali yanada yaxshilash" nazarda tutildi.

Umuman olganda, uy-joy bilan ta'minlash ustuvorliklari nafaqat aholining kam ta'minlangan qatlami uchun balki, boshqa toifadagi aholi uchun ham uy-joy fondini kengaytirish va uni yanada rivojlantirish aynan mazkur hujjatning xususiyatlarini aks ettirib beradi. Jumladan, davlat xizmatchilar, keksa va yosh avlodning uy-joyga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan vazifalarning belgilanishi shular qatoriga kirishini ta'kidlash lozim.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Aholini uy-joy bilan ta'minlashda davlat budjeti mablag'laridan foydalanish ko'plab olim va tadqiqotchilarning ilmiy xulosalarida o'z aksini topgan. Jumladan, A.Yadgarov va I.Musakov tomonidan aholini arzon uy-joylar bilan ta'minlash masalalariga e'tibor qaratib, o'zlarining ilmiy xulosalarini shakllantirib berishadi [1]. Jumladan, ular quyidagicha fikrlarni asoslashga harakat qilishadi:

birinchidan, respublikamizning hududlaridagi aholini arzon uy-joy bilan ta'minlash borasida viloyat va tumanlarda amalga oshirilayotgan ishlarning monitoringini takomillashtirish;

ikkinchidan, aholini arzon uy-joy bilan ta'minlash borasida hokimiyatlar huzurida tashkil etilgan komissiyalarning doimiy ishlashini ta'minlash hamda talab qilinadigan hujjatlarining sonini qisqartirish;

uchinchidan, aholini arzon uy-joy bilan ta'minlash borasida xorijiy tajribalarni o'rganish hamda kredit mudatini uzaytirish masalasiga ahamiyat qaratish;

to'rtinchidan, aholini arzon uy-joy bilan ta'minlash borasida hududiy hokimiyatlarda alohida bo'lim tashkil etish va aholining uy-joyga bo'lgan talablari bazasini shakllantirish.

Prof. J.Karimqulov va B.Nurmuxamedov tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotda aholini uy-joy bilan ta'minlashda vujudga kelayotgan muammoli vaziyatlarning tahlili yuzasidan ilmiy xulosalar shakllantirib beriladi [2]. Ular tomonidan davlat budjeti mablag'lari hisobidan arzon uy-joylarni moliyalashtirishga qaratilgan moliya siyosati tahlil etiladi. Jumladan, budjet mablag'lari hisobidan xabarnomalar taqdim etilishi asosida uy-joylar uchun to'lovlarni amalga oshirishda uy sotib olmoqchi bo'lgan fuqaroning to'lov qobiliyatiga mos kelmasligi yoki arzon uylarni topishdagi murakkabliklarni keltirib o'tadi. Shuningdek, ipoteka bozorini rivojlantirishda holini uy-joy bilan ta'minlash tizimini quyidagilarga bo'lgan holda amalga oshirishni taklif etadi:

- ijtimoiy ijara tizimi.
- budjet subsidiyasi asosida kreditlash.
- tijorat asosida kreditlash.
- norasmiy daromadga ega bo'lgan fuqarolarga kreditlash tizimini joriy etishni nazarda tutishadi.

Dots. U.Djumaniyazov uy-joy qurilishi sohasida korporativ boshqaruv elementlarini joriy etish va unda davlat-xususiy sheriklik amaliyotining rivojlanishiga e'tibor qaratadi [3]. Uning fikricha, namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan uy-joylarga sarflanayotgan investitsiyalar miqdorining bir foizga oshishi qurib foydalanishga topshirilayotgan uy-joylar sonining 0.35 foizga oshishini ta'minlamoqda, degan fikr qayd etib o'tiladi. Shuningdek, mamlakatimiz aholisini arzon va sifatli, zamonaviy infratuzilmaga ega uy-joylar bilan ta'minlash muammosi asosiy kun tartibidagi keskin ijtimoiy masalalardan biri hisoblanadi hamda jahon tajribasiga ko'ra, mazkur muammoni yechishda davlatning iqtisodiyotga aralashuvi o'ta muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlab o'tadi.

Y.Qiyomov o'zining tadqiqotida uy-joy fondini boshqarishga nisbatan yondashuvlar ishlab chiqiladi [4]. Uning fikricha, O'zbekiston Respublikasi (sobiq) moliya vazirligi bilan kelishilgan tarzda uy-joy fonidagi kommunal xizmat ko'rsatish tizimi xizmatlari kalkulyatsyasini takomillashtirish muhim ekanligi qayd etib o'taladi. Shuningdek, mazkur boshqaruv jarayonlariga raqamli texnologiyaarni joriy etishga qaratilgan tadbirlarni yanada jadallashtirish maqsadga muvofiq ekanligi ta'kidlab o'tiladi.

N.Asadullina va boshqalar tomonidan mamlakatimizda uy-joy qurilish tendensiyalarining rivojlanish holatlarini tahlil etib o'tadi [5]. Ularning fikricha, uy-joyga bo'lgan ehtiyoji yuqori bo'lgan aholi qatlamining asosiy qismi daromadlarining sezilarli ulushini ijara to'lovlarga yo'naltirilayotganligini ta'kidlab o'tadi. Bu esa, qo'shimcha tarzda ehtiyojlarni ta'minlashga bo'lgan moliviy murakkabliklarni keltirib chiqarishini ko'rsatib o'tishadi. Natijada, oilaning qashoqlashuvi oshishi, tibbiy xizmatlardan foydalana olish imkoniyati kamayishi kabi tendensiyalarni keltirib chiqarishini qayd etib o'tishadi.

Fikrimizcha, yuqoridagi tadqiqotlarning ilmiy xulosalarida aholining kam daromadli qatlamini uy-joy bilan ta'minlash borasidagi turli nuqtayi nazarlar ifodalab berilmoqda. Ularni o'rganish natijasida quyidagi ilmiy xulosalarni keltirib o'tish mumkin:



Birinchidan, aholining kam daromadli qatlamini uy-joy bilan ta'minlashda budget mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirishda manzillilik tamoyilini aniq belgilab olish;

Ikkinchidan, budget mablag'laridan aholining kam daromadli qatlami uy-joy sotib olishlarida mahalliy hokimiyat organlarining vakolatlarini mustahkamlash va mustaqilligini oshirish;

Uchinchidan, ipoteka kreditlari asosida uy-joy sotib olishni moliyalashtirishning ijtimoiy ahamiyatini oshirish va unda tijorat xususiyatining bo'lmashligini oldini olish;

To'rtinchidan, uy-joy fondini boshqarishda korporativ boshqaruv elementlaridan faol foydalanishni nazarda tutish bu boradagi ishlarning samarali tashkil etilishiga xizmat qiladi, deb o'ylaymiz.

O.Xaitov va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotda uy-joy fondining barqarorligi aholi hayot farovonligini ta'minlashdagi muhim omillardan biri ekanligi ta'kidlab o'tiladi [6]. Ularning fikricha, uy-joy fondining muammolari quyidagi jihatlar bilan ajratib ko'rsatiladi: miqoriy jihat (uy-joy yetishmasligi), tarkibiy jihat (oila hajmi va uy-joy fondining nomuvofiqligi), sifat jihat (zamonaviy talablarga mos kelmasligi) va ekspluatatsion jihat (uy-joy fondini boshqarish bilan bog'liq muammolarning saqlanib qolishi) kabilarni keltirib o'tadi.

Shuningdek, dots. I.Toymuxamedov va boshqalar o'zlarining tadqiqotlarida yoshlarga ipoteka kreditlarini ajratishga nisbatan yondashuvlarini keltirib o'tishadi [7]. Davlat tomonidan uy-joy bilan ta'minlashni qo'llab-quvvatlash quyidagi holatlar bilan aks ettirilishi lozimligi qayd etib o'tiladi: ipoteka kreditlash tizimiga mahalliy maqom berish, tarkibiy tuzilma xarajatlarini yoki imtiyozlarini kamaytirish orqali ishtirokchilar moliyaviy yuklari miqdorini kamaytirishga erishish, davlat budgetidan subsidiyalar berish orqali raqobat muhitini rivojlantirish, mahalliy hokimiyat organlarining garov kafolatlari asosida maxsus kreditlash mexanizmlarini joriy etishni nazarda tutish kabilarni keltirib o'tadi.

Bizningcha, aholining kam daromadli qatlamini uy-joy bilan budget mablag'lari hisobidan ta'minlashda makroiqtisodiy muovzanatni inobatga olish zarurati ayrim tadqiqotlarda o'zaksini topmoqda. Jumladan, uy-joy bozoridagi yalpi talab va yalpi taklif siyosatini barqarorligini ta'minlash, har bir oilaga mos keladigan yashash maydonining muvofiqligi, unga ko'rsatiladigan xizmatlarning sifati jihatidan ta'minlash. Shuningdek, budget mablag'lari hisobidan subsidiyalar berish orqali raqobat muhitini rivojlantirishni ham e'tiborga olish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

B.Usmonov o'zining tadqiqotida aholi turmush farovonligini ta'minlashda uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasiga e'tibor qaratib o'tadi[8]. Uning fikricha, ijtimoiy himoyani amalga oshirishda kam daromadli oilalarning uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasi muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab o'tadi. Oilalarga ijtimoiy himoya mablag'larini yo'naltirishda ularning farzandlar soni bilan birga, ijara uyda yashashini ham inobatga olish zarurligini ta'kidlab o'tadi. Shuningdek, bir kishi to'g'ri keluvchi yashash maydoni nuqtayi nazaridan ijtimoiy himoya elementlarini yanada takomillashtirishga e'tibor berishni taklif etadi.

N.Primova davlat budgeti mablag'laridan foydalanishda natijaga yo'naltirilgan budgetlashtirish amaliyotidan foydalanishni tahlil etadi [9]. Uning fikricha, kam ta'minlangan oilalarga davlat budgetidan ijaraga beriladigan uylar to'lovlarini to'lash, sotib olishda subsidiyalash amaliyotini rivojlantirish kabi jihatlarni ta'kidlab o'tadi.

Bizning fikrimizcha, kam ta'minlangan oilalarni uy-joy bilan ta'minlashda budget mablag'larining roli borasidagi ilmiy xulosalar o'zbek tilida nashr etilgan tadqiqotlarda o'z aksini topmoqda. Ushbu tadqiqotlarda kam daromadli oilalarga nafaqat uy-joy uchun subsidiyalar berish, balki ijara to'lovlariniham to'lashga nisbatan yondashuvlarni ko'rish mumkin. Shuningdek, oila a'zolarining sonidan kelib chiqib, uy-joyning umumiy maydonini ham bir kishi uchun minimal talablarga javob berishini inobatga olish zarurati ta'kidlab o'tiladi. Shu boisdan, kam ta'minlangan oilalar uchun uy-joy bilan ta'minlanishida davlat budgeti mablag'larini yashash maydonining bir kvadrat metrigha nisbatan tasniflash aholi farovonligini ta'minlashda muhim elementlaridan biriga aylanadi, deb o'ylaymiz.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kuzatuvlarimiz asosida respublikamiz aholining kam daromadli qatlamini uy-joy bilan budget mablag'lari hisobidan ta'minlashda makroiqtisodiy muovzanatni inobatga olish zarurati bo'yicha ilmiy xulosa va takliflar ishlab chiqilgan. Maqolani shakllantirish jarayonida kuzatish va tanlab olish, ilmiy-nazariy, empirik kuzatuv usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda aholini bozor hamda ijtimoiy himoya tamoyillari asosida ipoteka kreditlashi asosida uy-joy bilan ta'minlash amaliyoti keng rivojlana boshladi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019-yil 28-noyabrdagi "Ipoteka krediti mexanizmlarini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5886-son Farmonining qabul qilinishi bilan yangi yondashuvlar joriy etila boshlandi.

2 <https://lex.uz/en/docs/-4637331?ONDATE=07.07.2023>



Mazkur hujjatga ko'ra, aholini uy-joy bilan ta'minlashda aralash shaklda moliyalashtirish mexanizmlari nazarda tutilgan. Unga ko'ra:

Birinchidan, aholining barcha qatlamlariga tijorat banklari o'z mablag'lari hisobidan ipoteka kreditlarini moliyalashtirishi nazarda tutilgan.

Ikkinchidan, aholining uy-joyga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda davlat budjeti mablag'laridan qayta moliyalashtirish stavkasidan ko'p bo'lmagan miqdorda ipoteka kreditlarini moliyalashtirish.

Uchinchidan, aholining ayrim qatlamlari uchun budjet mablag'lari hisobidan subsidiyalar ajratish nazarda tutilgan. Bunda ko'p qavatli uylardan uy-joy sotib olishda dastlabki to'lovlarni yoki foiz to'lovlarining ma'lum qismini budjetdan subdsiyalash orqali moliyalashtirish amaliyoti joriy etilgan.

Bizningcha, davlat budjeti mablag'lari hisobidan uy-joy sotib olishni ipoteka kreditlari asosida moliyalashtirish amaliyoti tatbiq etilishi bilan yalpi talab va yalpi taklif muvozanatining taminlashiga ham e'tibor qaratilmoqda. Ko'p yillar mobaynida to'plab qolgan yalpi talabning ta'minlanishi muhim hisoblanadi. Buning natijasida, oila a'zolarining bir a'zoasiga to'g'ri keladigan yashash maydoni mezonining minimal talabi bajarilmasligi tendensiyasi kengayib borganligini qayd etish lozim. Shu boisdan, davlat tomonidan ipoteka krediti bozorini rag'batlantirish va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan qatlamini moliyaviy qo'llab-quvvatlash kabilar joriy etila boshlanishi ayni e'tiborga molik hisoblanadi.

Umuman olganda, uy-joy bozorida narxlarning ko'tarilishiga dastlab yalpi talab va taklif nisbatidagi elementlarning nobarqarorligi oqrali ifodalash muhim hisoblanadi. Shu o'rinda, uy-joy bozoridagi tendensiyalarning aholi daromadlari bilan o'zaro uyg'unligi yuzasidan ayrim tahlil va xulosalarni keltirib o'tmoqchimiz.

Ma'lumki, global iqtisodiyotning ko'zga ko'ringan davlatlarida demografik holatning nomuvofiqligi rivojlanmoqda. Bu esa, mazkur davlatlarda mehnat resurslarini jalb etishning keskin ortayotganligini o'zida aks ettirmoqda. Rivojlangan davlatlarga aholi ko'chishning ortishi uy-joyga nisbatan talabning ham ortishiga xizmat qilmoqda. Xalqaro moliya (Fitch Rating) baholash tashkilotining xulosalariga binoan, 2024–2025-yillar davomida Xitoy Xalq Resublikasidan tashqari AQSH, Kanada va Yevropa davlatlaridan Buyuk Britaniya, Ispaniya, Daniya kabi mamlakatlarda uy-joy qiymatining va ipoteka krediti hajmining oshishi prognoz qilinmoqda. O'tgan asrning 80-yillaridan toki 2015-yilga qadar Xitoyda "bir oila bir farzand" prinsipi asosida hayot tarzining tashkil etilishi demografik sakrashning oldini olishga xizmat qildi, desak xato bo'lmaydi.

Fikrimizcha, demografik jihatdan o'sish tendensiyalarining kengayib borishi uy-joyga egalik qilishga nisbatan yalpi talabning hajmini oshishiga olib keladi ekan. Jumladan, demografik jihatdan tebranishning keskinlashib borishi uy-joy bozoridagi tendensiyalarga to'g'ridan to'g'ri ta'sir etar ekan. Mazkur tendensiya esa bir oila a'zosiga to'g'ri keladigan yashash maydonining minimal hajmi nuqtayi nazaridan barqaror bo'lishiga zaruratni keltirib chiqaradi.

Bir kishi uchun yashash maydonining minimal hajmi O'zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksining 42-moddasi³da keltirilgan bo'lib, unga ko'ra "Uy-joy maydonining ijtimoiy normasi" 16 m² tarzida qayd etilgan. Shuningdek, aholining ayrim qatlami bo'lgan imkoniyati cheklanganlar uchun mazkur ko'rsatkich 23 m² etib belgilangan. E'tibrol jihat, mazkur mezon Yevropaning ko'plab davlatlarida 10 m² dan 18 m²gacha hajmda qayd etilgan. Shu boisdan, mamlakatimizda yosh avlodning o'sib kelayotganligi va ularning aholi tarkibidagi ulushi oshib borayotganligi respublikada uy-joy fondini oshirishga bo'lgan talabning muhimligini ko'rsatib beradi.

Masaqayd etish lozim, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligiga, 2000-yildan keyin hozirgi kunga qadar oilalarda a'zolarining o'rtacha soni 5 kishi bo'lgan. Shu bilan birga, e'tibor berish lozim, o'rganilayotgan davrda 60 foiz oiladagi a'zolar soni esa 5 kishidan ko'p bo'lganligini ta'kidlash lozim. Shuningdek, 2000-yilda 18,6 foiz oilada voyaga yetgan, ya'ni 16 yoshdan katta farzandlari bo'lganligini, 2016-yilga kelib esa mazkur raqam 26,2 foizga yetganligini qayd etish lozim. Shu boisdan, istiqbolda yosh oilalarning ulushi ortishiga nisbatan signallar vujudga kelayotganligini inobatga olish zarur deb o'ylaymiz.

Umuman olganda, ipoteka kreditlashning kengayishi va aholi daromadlarining ortishi davomida uy-joy bozorida ham o'zgarishlar vujudga kelishiga olib keldi. Jumladan, yangian-yangi uy-joy fondining barpo etilishining rivojlanishi bir jihatdan yalpi talabning yuqoriligi bilan birga, boshqa jihatdan ba'zi qurilishi-montaj materiallarining xorijdan olib kelinishi tuayli qiymatning oshishiga xizmat qildi, desak to'g'ri bo'ladi.

Fundamental iqtisodiyot fanidan bilamizki, tabiiy resurslar cheklangan shartda cheklanmagan talabning rivojlanishi doimiy xarakter kasb etadi. Bu esa, gloab miqyosda yer maydoni – tabiiy resurs qayta yaratilmaydi. Shu boisdan, ushbu resurs tabiiy cheklangan hisoblanadi. Shu boisdan, yer maydoniga eglik qilib borish uning qiymatini doimiy ravishda barqaror bo'lishiga shart-sharoit yaratadi. Shu nuqtayi nazardan, uy-joy fondi uchun yer maydonining rentabelligi barqaror bo'lib qolaverishini ta'kidlash lozim. Albatta, iqtisodiyoti o'sayotgan davlatlarda aholining ortib borishi uy-joy fondiga nisbatan yalpi talabning keskin saqlanib qolishiga olib kelishi tabiiy hisoblanadi, deb o'ylaymiz.

3 <https://lex.uz/acts/-106136>



Bizningcha, so'nggi yillarda aholi daromadlarining o'sayotganligi uy-joy bozorida narxlarning sezilarli oshishiga olib kelmoqda. Sababi, aholi daromadlarining oshishi ulardagi investitsiya uchun jamg'arma hajmining o'sganligi bilan izohlash mumkin. Jumladan, 2016-yilda 5,9 mln. so'm va 2023-yilda 18,2 mln. so'mga teng bo'lgan aholi real daromadlarida o'sish tendensiyasini kuzatish mumkin. Shuningdek, aholi daromadlarining tarkibiy jihatdan ham optimallashtirilganligini kuzatish mumkin. Xususan, umumiy daromatlarda birlamchi daromadlar ulushi 2014–2015-yillarda 80-84 foizni tashkil etgan bo'lsa, mazkur raqam 2023-yilga kelib 73 foizga teng bo'lganligini qayd etish lozim. O'z navbatida, mol-mulk hisobidan olinadigan daromadlar ulushi o'rganilayotgan davrda 2 foizga teng bo'lgan bo'lsa, 2023-yilga kelib esa, 0,8 foiz punktga o'sganligini ko'rish mumkin. Fikrimizcha, uy-joy fondidan nafaqat yashash maydoni sifatida, balki mulkiy daromad ko'rish maqsadida ham foydalanish holatlari oshganligini ko'rish mumkin.

Umuman olib qaraganda, aholining daromadlari ulushida mulkiy tarzda olinayotgan daromadlarning ulushi ortayotganligini kuzatish mumkin. Bu esa, nega ushbu tendensiya ortayotganligini o'rganishga bo'lgan zaruratni keltirib chiqaradi. Jumladan, uy-joy bozorining likvidlik darajasi va uning investitsion jozibadorligi saqlanib qolayotganligi qayd etish lozim. Yana bir jihati, jamg'armalar yo'naltirilishi uchun undan-da jozibali sohaning nobarqarorligi sabablarini keltirish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining hisobotlariga binoan, chakana xizmatlari tarkibida jismoniy shaxslar uchun depozitlarning yillik foiz stavkalari 2024-yilning birinchi yarim yilligida 20–22 foizni tashkil etganligini qayd etish lozim. Ushbu tendensiyalar mulkdan olinadigan daromatlarga nisbatan rentabelligi yuqori bo'lsa-da, depozitning asosiy mablag'larining moliyaviy qiymati inflyatsion jarayonlardan ko'ra ortda qolayotganligini qayd etish lozim. Bu esa, jismoniy shaxslarda o'z jamg'armalarini moliya bozoriga emas, balki ko'chmas mulk bozoriga yo'naltirishiga sabab bo'lmoqda.

Fikrimizcha, jismoniy shaxslarning investitsiyaviy faoliyatlarida moliya bozoriga nisbatan moyil tarzda bo'lishini ta'minlash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bunda aholining jamg'armalarini uy-joy sotib olishga emas, balki moliya bozoriga yo'naltirilishi ko'chmas mulk bozoridagi narx qizib ketishining oldini olishga yordam beradi, deb o'ylaymiz. Bu esa, uy-joy bozorida narxlarni aholining imkoniyatlariga moslashtirishga va davlat budjeti hisobidan aholi uchun uy-joy xarajatlarini moliyalashtirishda moliyaviy yukning kamayishiga erishish mumkin, deb hisoblaymiz.

Ma'lumki, mamlakaatlarda bozor tamoyillari kengayib borgani sari aholi daromadlari oshishi fonida insonlarning qarzga yashash holatlari ortib boradi. Bunda insonlar o'zlari egalik qilishni yoki iste'mol qilishni istagan tovar (ish, xizmat)larini istiqboldagi daromadlariga ishonib qarzga iste'mol qilishni kuchaytirib yuboradilar. Bu esa, uy-joy bozoridagi tendensiyalariga ham o'ziga xos tarzda ta'sir etmay qolmaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bizningcha, ipoteka kreditlash amaliyotining rivojlanish natijasida u bilan bog'liq ayrim riskli vaziyatlarning shakllanishini qayd etish lozim. Jumladan:

Birinchidan, jismoniy shaxslarning daomatlari tarkibidagi nobararlik sabab ipoteka kreditining qaytmaslik riskini oshishi mumkinligini ko'rish mumkin. Natijada, makroiqtisodiy barqarorlikning muzonatida ayrim murakkabliklar vujudga kelishini qayd etish lozim.

Ikkinchidan, ipoteka kreditining uzoq muddatga saqlanib qolishi aholining sotib olish qobiliyatini kamaytirishga olib kelishi mumkin. Shuningdek, ipoteka kreditining asosiy qarz hajmi va uning foiz to'lovlari oila budjetida salmoqli o'rinni egallashi oilaning boshqa iste'mol to'lovlari moliyalashtirishga to'sqinlik qilishi mumkin.

Uchinchidan, milliy iqtisodiyotda jismoniy shaxslarning jamg'armalari bir sohada to'planib qolishi investitsion faoliyatni kamayishi olib kelishi mumkin, deb o'ylaymiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2024-yil 29-yanvar kuni videoselektor yig'ilishida "Toshkentda yangi kvartiralar narxi 1 kv. metrda 25 mln so'mga yetdi va kadastr yo'q uyga ipoteka berilmaydi", deb qayd etdi. Shu bilan birga, "Ipotekani qo'llab-quvvatlash jamg'armasini tashkil etish va aholining uy-joy qurilishida ulushdor sifatida ishtirokini tartibga solish bo'yicha" maxsus me'yoriy-hujjatni qabul qilish jarayonlarini tezlashtirishga topshiriq berdi. Shuningdek, mazkur fondning mablag'larini 200 mln. AQSH dollariga yetkazish belgilandi.

Fikrimizcha, uy-joy mulklarini ipoteka kreditlar asosida sotib olish mexanizmlarida ko'chmas mulk bozorida birlamchi yoki ikkilamchi kategoriyasiga nisbatan yondashuvni bekor qilish va unga uy-joy mulki sifatida qarash muhim hisoblanadi. Ushbu yondashuv asosida ipotekani moliyalashtirish esa, ko'chmas mulk bozoridagi raqobat muhitini shakllanishiga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Inobatga olish lozimki, yangi quriladigan uy-joylar joriy narx hisob-kitobi asosida shakllanadi. Ikkilamchi uy-joy fondining narxi esa mazkur narxlarga ekvivalent sifatida shakllanishi vujudga keladi. Bu esa, ipotekali kreditlash jarayonida umumiy qoidalarni ishlab chiqishga bo'lgan imkoniyatni yaratish muhim ekanligini o'zida ifodalab beradi.

Xulosa qilib aytganda, davlat budjetidan uy-joy sotib olishni moliyalashtirishda ko'chmas mulk bozoridagi narx qizib ketishining oldini olish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shuningdek, ko'chmas mulk bozorining aholi



darmoadlarig monand ravishda rivojlantirishga nisbatan makroiqtisodiy siyosatni shakllantirish budget xarajatlari nisbatan moliyaviy yukni kamayishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Мусаков И.Ю. Ядгаров А.А. Иқтисодий ислохотлар натижасида аҳолини арзон уй-жой билан таъминлашнинг долзарб масалалари // "Иқтисодиёт ва инноватсион технологиялар" илмий электрон журналы. № 3, май-июнь, 2018 йил.
2. Каримкулов Ж., Нурмухамедов Б. Аҳолини уй-жой билан таъминлашда юзага келаётган муаммолар ҳолатлар ва уларнинг ечими юзасидан таклифлар // Наука и технология в современном мире. – 2022. – Т. 1. – №. 7. – С. 34-40.
3. Джуманиязов У. И. Давлат-хусусий шерикчилиги асосида корпоратив бошқарувни ривожлантиришнинг айрим назарий-услубий масалалари // "Иқтисодиёт ва инноватсион технологиялар" илмий электрон журналы. № 2, март-апрель, 2018 йил.
4. Қиёмов Ю. Т. и др. Уй-жой коммунал хизмат кўрсатиш соҳасидаги қулайликларнинг аҳоли эҳтиёжига бўлган талаби // Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 3. – С. 601-606.
5. Асадуллина Н. Р., Нормуродов С. Н. Ўзбекистонда уй-жой қурилишининг ривожланиш тенденциялари // golden brain. – 2023. – Т. 1. – №. 26. – С. 11-23.
6. Хаитов О. Н., Очилов М., Тугилов Д., Мамлакатимизда уй-жой фондининг ривожланиш муаммолари ва истиқболлари // Journal of Discoveries in Applied and Natural Science. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 15-20.
7. Тоймухамедов И., Эльбусинова У. Ўзбекистонда ёш оилаларга ипотека кредитларини бериш механизмини такомиллаштириш йўллари // I Ўзбекистон Республикаси ҳаракатлар стратегияси: макроиқтисодий барқарорлик, инвестицион фаоллик ва инноватсион ривожланиш истиқболлари II халқаро илмий-амалий конференция. – 2019. 27-28 май.
8. Усманов Б. Аҳоли турмуш фаровонлиги ва унда давлатнинг молиявий сиёсати // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2023. – Т. 1. – №. 7. – С. 410-417.
9. Примова Н. Натижага йўналтирилган бюджетлаштириш технологияси: назария ва амалий ечимлар // Economics and Innovative Technologies. – 2024. – Т. 12. – №. 2. – С. 253-264.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

